

## **OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARGA QARSHI KURASH FAOLIYATINI O'RGANISHDAGI ILMIY YONDASHUVLAR**

**Xakimov Mirjalol Abdug'opirovich**

*Mayor Jamoat xavfsizligi universiteti magistrature tinglovchisi*

Ommaviy tartibsizliklar jamiyat va davlat xavfsizligiga putur etkazuvchi tushuncha sifatida doimiy ravishda ilmiy doiralar diqqat markazida bo'lib kelgan. Uning o'ziga xosligi shundan iboratki, u boshqa bir qancha xavflar yoki tahdidlar bilan birga yuradi, jumladan mamlakatdagi etnik ziddiyatlar, norozilik namoyishlari, rangli inqiloblar, ommaviy bezorilik harakatlari, jinoiy guruhlar o'rtasidagi to'qnashuvlar bevosita ommaviy tartibsizlik ko'rinishida sodir bo'ladi. SHuning uchun ham davlat va jamiyat hayotidagi ko'plab sohalarda bu muammo o'rganib kelinadi. Xususan, yuridik soha vakillari uni og'ir turdag'i bir jinoyat sifatida o'rganishsa, sotsiologlar olomon fenomeni bilan bog'liq ravishda ijtimoiy psixologik jihatdan o'rganib kelishadi, siyosatchilar esa davlatning siyosiy barqarorlik holatiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazishi nuqtai nazaridan baholab kelishadi.

Fikrimizcha, ommaviy tartibsizliklarni alohida yondashuvlar asosida o'rganmasdan kompleks tarzda, ya'ni huquqiy, ijtimoiy va siyosiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda tadqiq etish, ommaviy tartibsizliklarning barcha jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Huquqiy yondashuv

Ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash faoliyatiga huquqiy yondashuvchi tadqiqotchilar, uni jinoiy faoliyatning bir turi sifatida baholashga e'tibor qaratishadi. YA'ni, ommaviy tartibsizlik natijasida kelib chiqadigan javobgarlik nuqtai nazardan o'rganishadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244-moddasida ommaviy tartibsizliklar uchun tegishli javobgarlik belgilangan.

Huquqiy yondashuvda ushbu jinoyatning yuridik tushunchasi, ob'ekti, sub'ekti, ob'ektiv tomoni, sub'ektiv tomoni va tergov qilish bilan bog'liq bo'lgan jihatlar yoritib o'tiladi.

Mazkur jinoyatning ob'ekti – jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, kishilar hayoti, sog'ligi, o'zganing mol-mulki, shuningdek, davlat hokimiyyati va boshqaruv organlarining normal faoliyati bo'lishi mumkin.

Bunday jinoyatning ob'ektiv tomoni – quyidagilarni qamrab oladi:

- quroq yoki quroq sifatida foydalaniladigan boshqa narsalarni ishlatib yoxud ishlatish bilan qo'rqitib, shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatish, qirg'in solish, o't qo'yish, mulkka shikast etkazish yoki uni nobud qilish, hokimiyyat vakiliga qarshilik ko'rsatish orqali sodir etiladigan ommaviy tartibsizliklar;

- ommaviy tartibsizliklarda faol ishtirop etish.

Jinoyatning sub'ekti – 16 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmasan aqli raso jismoniy shaxslar ommaviy tartibsizliklarning tashkilotchilari va faol qatnashchilari hisoblanadi.

Ommaviy tartibsizliklar sub'ektiv tomondan qasddan sodir etiladi, shu tufayli sodir etish motivi va ko'zlangan maqsadi jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi. Jinoyatning motivi millatchilik, hokimiyatni egallashga intilish, g'araz, bezorilik va hokazolar bo'lishi mumkin.[1]

Ommaviy tartibsizliklarning boshqa qatnashchilari esa ommaviy tartibsizliklar vaqtida o'zları sodir etgan jinoyatlar uchungina javob beradilar.

Agar ommaviy tartibsizliklarning tashkilotchilari yoki faol ishtirokchilari 16 yoshga to'lmagan bo'lsa, bu holda ular ommaviy tartibsizliklar vaqtida o'zları sodir etgan muayyan jinoyatlari uchun, masalan, odam o'ldirish, o'zgalar mulkini nobud qilish, zo'r lab nomusga tekkanligi uchun javob beradilar.

Ta'kidlash lozimki, qirg'in solish, vayron qilish, o't qo'yish va shunga o'xshash harakatlarni amalga oshirmsandan jamoat tartibini buzish holatlaridagi huquqbuzarliklar ma'lum bir shart-sharoitlar mavjud bo'lgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining "Bezorilik" 277-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Ommaviy tartibsizliklarni huquqiy jihatdan o'rgangan tadqiqotchilar, ushbu jinoyatni boshqa turdag'i jinoyatlar bilan kompleks tarzda sodir bo'lishini, shuningdek bu jinoyat olomon ishtirokida sodir etilishi nuqtai nazardan, haqiqiy aybdorlarni aniqlash va tergov olib borishda ma'lum bir qiyinchiliklar vujudga kelishini aytib o'tishadi.[2]

Ushbu jinoyat tarkibida ishtirokchilikning barcha shakllari namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tartibsizliklar yadrosida joylashgan bo'lsa, qolgan shaxslar esa oddiy yoki murakkab ishtirokchilik shakllari ko'rinishida qatnashgan bo'ladilar.

Jinoyatning tugash vaqtı bo'yicha huquqshunoslar tomonidan turlicha qarashlar mavjud. Xususan, A.Zaynidinov fikricha ommaviy tartibsizliklar real holatda tashkil etilgan va uning oqibatlari paydo bo'lgan vaqtida jinoyat tugallangan hisoblanadi.[3]

N.Vodkoning so'zlariga ko'ra, jinoyatning zararli oqibatlar sodir bo'lgan yoki bo'lmaganligidan qat'iy nazar jinoyat tugagan hisoblanadi.[4]

Bizning fikrimizcha, ommaviy tartibsizliklarning ob'ektiv tomonini tashkil etuvchi har qanday xatti-harakatlar sodir etgan paytdan boshlab jinoyat tugatilgan deb tan olinishi kerak.

### Psixologik yondashuv

Psixologik yondashuvda ommaviy tartibsizliklar bevosita olomon fenomeni bilan bog'liq tarzda tadqiq etiladi, ya'ni tartibsizliklarni amalga oshiruvchi olomon turlari, yuzaga kelish motivi, psixologiyasi, ishtirokchilar ongiga tasir qilish usullari va vositalari, olomon xulq-atvoridagi o'zgarishlar va uni boshqarish bilan bog'liq jarayonlar o'rganiladi.

Psixologlar yondashuviga ko'ra, olomon – alohida tashkil etilmagan, stixiyali tarzda paydo bo'lgan tartibsiz, anglab olingan umumiy maqsadga ega bo'lмаган, sof hissiyotga berilgan odamlar to'dasi.[5]

Psixologiyada olomon faolligi va hissiyotga berilganlik darajasiga ko'ra faol va passiv turlarga ajratiladi.

Faol olomon deganda birinchi navbatda zo'ravonlik, shafqatsizlik, bosqinchilik, qo'poruvchilik harakatlariga moyilligi bo'lgan, tajovuzkor xulq-atvor etakchilik qiladigan odamlar to'dasini tushunish lozim.

Passiv olomon esa, o'zida emotsiyal komponentlarning yo'qligi bilan ajralib turadi. Uni tashkil qiluvchilar ushbu guruhga to'satdan, misol uchun, biron bir hodisani tomosha qilaman deb, shunchaki qo'shilib qolganlar yoki aniq maqsad asosida kelishilgan holda yig'ilganlar (to'y hashamlarga, kino, teatrga kelganlar) ham bo'lishi mumkin. Passiv olomonga xos individlarning o'zaro joylashuvi shundayki, ular bir-birlariga ta'sir qilmaydi. Binobarin bu turdag'i olomonni boshqarish oson kechishi tadqiqotchilar tomonidan alohida ko'rsatib o'tilgan.

Olomonni psixologiya nuqtai nazaridan bu tarzda tasniflash shartli qabul qilingan bo'lib, amaliy nuqtai nazardan qaraganda olomonning o'zgaruvchanligi ya'ni, bir turdan ikkinchisiga o'tishi uning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.[6] Olomonning o'zgaruvchanligi to'satdan yoki qasddan uyushtirilgan bo'lishi mumkin.

Ko'plab tadqiqotchilar ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqishida bevosita olomonni eng xavfli bo'g'in sifatida ko'rsatishsa, A.N. Suxov ulardan farqli ravishda olomonni bir qancha turlarga ajratib, ularning ayrimlarini xavfsiz bo'lishi mumkinligi to'g'risida fikr yuritadi.

Oddiy olomon – tasodifan ma'lum bir voqeа-hodisa to'g'risida ma'lumot olish uchun yig'ilgan odamlar to'dasi. Masalan yong'in yoki avariya vaqtlarida yig'ilgan omma. Bu olomon turini muallif eng xavfsiz deb baholaydi.

Ekspressiv olomon – u birgalikda quvonch, qayg'u, g'azab va boshqa his-tuyg'ularni ifoda etadigan odamlar guruhi. Masalan, rok musiqachilar muxlislari, dafn marosimi ishtirokchilar.

Konvensional olomon – asosan sport tadbirlari vaqtida shakllanadigan fanatlar guruhi. Ularning xavfli jihatи raqib jamoa vakillari bilan keltirib chiqaradigan tartibsizliklarda ko'rindi.

Ekstatik olomon – ekspressiv olomonning haddan tashqari kuchli shakli bo'lib, bunda odamlar his-tuyg'ular kuchliligidan bir-biriga tan jarohati etkazishgacha borishadi.

Faol olomon – bu jamoaviy xatti-harakatlarning siyosiy jihatdan eng muhim va xavfli shakli. U o'z navbatida bir necha aggressiv, vahimali, majburiy va isyonkor kabi kichik guruhlarga ajratiladi.[7] Odamlarning olomon ichiga qo'shilishga bo'lgan motivlar bular: Birinchi, bo'layotgan voqeа hodisaga qiziqish, ya'ni inson psixologiyasi shunday refleks shakllanganki, agarda biron joyda ko'pchilik insonlar to'planib turgan bo'lsa, shaxs o'z xohishiga bog'liq bo'lмаган holda o'sha joyga borishga intiladi.

Ikkinchisi, boshqa shaxslarning chorlovi bilan, bunda shaxs olomonning to'planishidan manfaatdor bo'lgan shaxslarning ta'siri bilan olomon tarkibiga qo'shilib qoladi.

Uchinchi, ma'lum bir manfaatni ko'zlab, masalan hokimiyat vakiligi qarshilik ko'rsatish, o'z xohish istaklarini ommaviy tarzda bayon qilish, norozilik kayfiyatini ko'rsatish va boshqalar. Ushbu motivatsiyadagi shaxslar agressiv ko'rinishdagi olomonni tashkil qilib, davlat organlari tomonidan olib borilayotgan siyosatdan norozilik kayfiyatini o'zida namoyon qiladi.

Tadqiqotchilar tomonidan olomon psixologiyasini o'rganishda alohida bir shaxsni ajratgan holda uning aynan tartibsizliklar vaqtida ongida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni tahlil qilishganda, shaxs harakatlarida quyidagicha holat kuzatilgan:

- aqlni ishlatalishga nisbatan hissiyotga berilishning ortishi;
- o'z kuchiga haddan ortiq ishonch paydo bo'lishi; guruhiy ta'sir ortib, mustaqil fikrlashning pasayishi;
- tartibsizlik ob'ektiga nisbatan nafrat ortishi;
- o'z harakatiga javobgarlik hissining yo'qolishi;
- insonning haddan tashqari fidoiylik va shafqatsizlik qilishga qodir bo'lishi;
- qilayotgan xatti-harakatlarini ongli ravishda baholay olmasligi.[8]

YUqoridagi psixologik o'zgarishlarning barchasi salbiy xarakter kasb etib, olomonning agressivligini oshirishga xizmat qiladi, hamda tartibsizliklar tashkilotchilari uchun olomonni boshqarishda qulay muhit yaratadi. Bu o'z o'rnida, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan olomonni tarqatishda ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

#### Siyosiy yondashuv

Hozirgi vaqtda ommaviy tartibsizliklarni siyosiy yondashuv asosida tadqiq etish dolzarblashib bormoqda. Chunki tashqi aktorlar, yoki mamlakat ichidagi destruktiv kuchlar, ekstremistik tashkilotlar o'z maqsadlari yo'lida tartibsizliklardan muhim vosita sifatida foydalanishmoqda.

Ommaviy tartibsizlikdan vosita sifatida foydalanishning afzalligi yuqori darajada bo'lib, bunda mamlakatdagi siyosiy vaziyatni izdan chiqarishda aholini norozilik aksiyalari o'tkazishga undash va shu orqali keng ko'lamdagi tartibsizliklarni keltirib chiqarish etarli hisoblanadi. Hozirgi kundagi dunyoda bo'layotgan ommaviy tartibsizliklarning aksariyati xuddi shunday csenariy asosida amalga oshirilmoqda.

Tashqi aktorlar ommaviy tartibsizlikni amalga oshirishda bir qancha zamonaviy usul va vositalarni qo'llab kelishmoqda. Bu borada o'ziga xos "Boshqariladigan xaos", "aqli olomon" kabi konsepsiylar ham ishlab chiqilgan. Bu konsepsiyalarda sun'iy ravishda ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarish va uni boshqarish asosiy vazifa sifatida ko'rsatilgan.

B.S. Boymurodov o'z tadqiqotida "Boshqariladigan xaos" konsepsiyasini borasidagi fikr bildirib, unda ommaviy tartibsizliklar tashkil qilish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirishini aytib o'tadi. YAshirin guruh tashkil qilish, guruh a'zolarini

tayyorgarlikdan o'tkazish, ommaviy tartibsizliklarni boshqaradigan faol tanlash, strategiya ishlab chiqish, markaziy kuch "aqli olomonni" shakllantirish va ularni pul mablag'lari, qurol-yarog', texnik baza bilan ta'minlash.[9]

Ko'plab g'arb olimlarining fikricha, hozirda ma'lum bir davlatni o'ziga bo'yundirishda ushbu davlatga harbiy kuch bilan tahdid qilishning hojati yo'q, chunki harbiy kuchdan foydalanish, shu davlatning o'ziga ham salbiy ta'sir qilish mumkin. YUqori hajmdagi harbiy xarajatlardan ko'ra samaraliroq usullar mavjud bo'lib, bu asosan shu davlatdagi yoki mintaqadagi konfliktidan to'g'ri foydalanish yoki konflikt bo'lmasa uni sun'iy ravishda yaratishdir.

Bu borada E.SH.Hayitov ham davlatdagi siyosiy beqarorlik vaziyati aynan tashqi kuchlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lishi mumkinligini, ularning bunday harakatlari beqarorlikni yanada kuchaytirish, uni moliyalashtirish, davlat tepasiga o'zlariga moyil nomzodlarni olib kelish va buning asosida o'zlariga ma'qul siyosatni olib borishga qaratilishini aytib o'tadi.[10]

S. SHakaryans 2019 yil noyabr oyida Eronda bo'lib o'tgan voqealar xususida to'xtalib, benzin narxining oshirilishi natijasida kelib chiqqan norozilik namoyishlaridan, tashqi kuchlar Erondagi vaziyatni izdan chiqarishda foydalangani, xususan tartibsizliklarning faol ishtirokchilari boshqa davlatlarda jurnalist niqobi ostida maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va tegishli ko'rsatmalar bilan Eronga kiritilgani, halok bo'lgan ko'pgina insonlar aslida dushman kuchlari tomonidan yo'q qilinib, OAVlarda Eron hukumatini ayblashga qaratilgani haqida fikrlar bildiradi.[11]

### Sotsiologik yondashuv

Sotsiolog olimlar fikricha ommaviy tartibsizliklar bu ijtimoiy hodisa bo'lib, uning ildizlarini jamiyatda hukm suradigan "ommaviy kayfiyatdan" izlash kerak, u asosan ko'pchilik odamlar massasining jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan umumiyligi psixologik kayfiyati bilan tavsiflanadi.[12]

Jamiyatda omma kayfiyatini o'zida namoyon qiluvchi 3 ta holat mavjud bo'lib, birinchi: aholining yaratilgan ijtimoiy-siyosiy sharoitlardan qoniqish yoki qoniqmaslik darajasi, ikkinchi: fuqarolarning o'z ijtimoiy siyosiy istaklarini amalga oshira olish darajasi, uchinchi: mavjud yaratilgan shart-sharoitlarni o'zgartirishga bo'lgan xohishning mavjudligi.

YUqoridagi 3 ta holatning har birni kengroq tahlil qilsak, birinchi holatda davlat organlari va amaldagi siyosiy hokimiyat tomonidan jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda aholining rivojlanishi va kamol topishi uchun ma'lum bir shart sharoitlarning yaratilganligi bilan izohlanadi. Masalan, kommunal xizmatlar ko'rsatish, ta'lif, sog'liqni saqlash tizimi va boshqalar. Ikkinchi holat ushbu yaratilgan shart-sharoitlardan aholi teng huquqli ravishda foydalana olishi, davlatning bunga kafilligi, ushbu munosabatlarda tenglik buzilish hollari kuzatilsa aholi huquqlarining sud orqali himoya qilinishi, ya'ni aybdorlarga javobgarlik choralarining mavjudligi bilan belgilanadi. Uchinchi holat ko'proq siyosiy ahamiyat kasb etib, bunda aholi davlat hokimiyati tomonidan yaratilgan shart-sharoitdan noroziligi va ularni

o'zgartirishiga bo'lgan xohishi bilan xarakterlanadi. Fikrimizcha davlat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar asosan mana shu uchinchi holatga ko'proq e'tibor qaratishi lozim, sababi aholi ko'pchilik qismining yaratilgan shart-sharoitlarni o'zgartirishga bo'lgan istagi mavjud bo'lsa, u holda kelgusida norozilik chiqishlari vujudga kelishi mumkin.

SHuni ta'kidlash kerakki, ommaviy kayfiyat insonlar ongi bilan bog'liq jarayon bo'lib, agar u norozilik kayfiyati ko'rinishida bo'lsa, tez tarqaladi va juda yuqumli bo'ladi. Bundan tashqari, omma norozi kayfiyatda bo'lganda uni bevosita nazorat qilish va boshqarish qiyin kechadi. U hayotning qiyin sharoitlarida bo'lgan insonlarni oson va tez birlashtiradi, hamda insonlarga mos kelmaydigan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni o'zgartirishga bo'lgan salbiy ko'rinishdagi "yagona jamoa"ni shakllantiradi.

Omma kayfiyatining barqarorligi jamiyatda yaratilgan shart sharoitlar bilan aholi xohish istaklari o'rtasidagi muvozanatga bog'liq, agar ushbu muvozanat buzilsa, ommaviy tartibsizliklar kelib chiqishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday tartibga solinmagan olomon harakati bevosita jamoat xavfsizligi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum bir kichkina sabab tufayli ham ommaviy tartibsizliklar kelib chiqishi mumkin. Bu xavfli jinoyat bo'lib, jamiyat asoslariga putur etkazadi, barqaror vaziyatni izdan chiqaradi, fuqarolarning tinch hayot kechirishiga, korxona, muassasa va tashkilotlar normal faoliyat yuritishiga to'sqinlik qiladi. Davlat tomonidan ommaviy tartibsizliklarni oldini olish va bartaraf qilishga katta miqdordagi kuch va vositalar jalb qilishni talab qiladi. Bundan tashqari, uning yuz berish jarayonida ishtirokchilar tomonidan boshqa bir qator og'ir turdag'i jinoyatlar ham sodir etilishi mumkin.

Ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqaruvchi eng katta sabab bu - ko'pchilik aholining o'z ijtimoiy hayotidan noroziligi va ommaning davlat hokimiyatiga bo'lgan salbiy kayfiyati hisoblanadi. Tashqi kuchlar istalgan vaqtida hayot tarzidan norozi bo'lgan salbiy kayfiyatdagi olomonni provokatsiya yo'li bilan tartibsizliklar keltirib chiqarishga undashi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. Maxsus qism. Rustamboev M.X. 2016. 698-b. 21
2. Багмет А.М. Массовые беспорядки как уголовно-правовое понятие. <https://cyberleninka.ru/article/-2016>
3. Зайнутдинова А.Р. Ответственность за организованные формы соучастия в преступлении по российскому уголовному праву: Дис... канд. юрид. наук. – Казань, 2001. – 203 с.
4. Водько Н.П. Уголовно-правовая борьба с организованной преступностью. – М.: Юриспруденция, 2000. – 73 с.
5. Дружинин В.Н. "Психология XXI-века". Москва, 2003, 863 с.

6. Назаретян А.П. Агрессивная толпа, массовая паника, слухи. – СПб.: Питер, 2003. – 192с .
7. Сухов А.Н. Как уберечься в толпе ОБЖ: Основы безопасности жизни. – 2015. - № 10 .
8. Иванова К.В. Массовые беспорядки понятия и сущность – Москва. г 2017 .
9. Боймуродов Б.С. “Бошқариладиган хаос” концепцияси: назария ва амалиётда қўлланилиши Магис Дисс – Тошкент. 2017 й.
10. Ҳайитов Э.Ш. Оммавий тартибсизликлар жамиятнинг барқарорлигига таҳдид соловчи омил сифатида Магис Дисс – Тошкент. 2006 й
11. Шакарянц С. Экспорт революции в Иран. – Москва. г 2019 .
12. Жубандыков Л.А. Причины массовых беспорядков. Пресечение и предупреждение массовых беспорядков – Москва. г 2016